



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

18 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 18, НОМЕР 3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 18, ISSUE 3



ТОШКЕНТ-2025

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2025-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'afvor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farxod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govverjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Xabibullayeva Dilfuza Kuanishbay qizi DAVLAT XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY MAQOMI.....	5
2. Халилова Нигорахон Акмалжон кизи РОЛЬ СВОБОДЫ СЛОВА В МЕХАНИЗМЕ КОНТРОЛЯ НАД ГОСУДАРСТВЕННЫМИ ОРГАНАМИ.....	12
3. Baratov Mirodiljon Khomudzhonovich, Khakimov Ravshan Tulkunovich, Akramxodjaev Bori Toxtaxodjaevich ACCESSION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN TO THE WORLD TRADE ORGANIZATION AND CURRENT ISSUES OF CYBER PROTECTION OF THE AUTOMOTIVE INDUSTRY OF UZBEKISTAN.....	19
4. Фахриддинов Аловуддин Фахриддинович КИССАВУРЛИК ЖИНОЯТИНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШ ВА ФОШ ЭТИШГА ОИД АЙРИМ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ ҲУЖЖАТЛАР ТАҲЛИЛИ.....	26
5. Рузиназаров Шухрат Нуралиевич ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ: МИРОВЫЕ ОРИЕНТИРЫ И ОПЫТ СТРАН ЦАРЭС И ОТГ.....	34
6. Давлятов Валишер Хакимжанович АДВОКАТЛАРНИНГ ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНИ: АҲАМИЯТИ, ЗАРУРАТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	58
7. Рустамов Нодирбек Илхомович ТЕРГОВГА ҚАДАР ТЕКШИРУВ БОСҚИЧИДА ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИНИ ЎТКАЗИШ УСТИДАН ПРОКУРОР НАЗОРАТИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	65
8. Ametova Nurjamal Qudaybergenovna HARBIY YOКИ MAXSUS UNVONDAN MAHRUM ETISH TARZIDAGI QO‘SHIMCHA JAZO TURINI TA‘YINLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	74
9. Садуллаев Жахонгир Джамshedович АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЧИЛИГИДА ҲУЖЖАТЛАРНИ ҚАЛБАКИЛАШТИРГАНЛИК, СОТГАНЛИК ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ.....	80
10. Матжанов Илхам Адилбаевич ТЕРГОВГА ҚАДАР ТЕКШИРУВДА ЖИНОЯТ ҲАҚИДА ОАВ ДА ТАРҚАЛГАН ХАБАР ВА МАЪЛУМОТЛАРНИ ТЕКШИРИШНИНГ ПРОЦЕССУАЛ АҲАМИЯТИ.....	88
11. Ғайбуллаев Фаррух Юлдашевич ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА КОРРУЦИЯГА ҚАРШИ КУРАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	95
12. O‘rinova Dilshoda Adxamovna AYOLLAR JINOYATCHILIGINING SABABLARI, UNI VUJUDGA KELITIRUVCHI SHART- SHAROITLAR.....	108




**12.00.02-КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО. АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО.
ФИНАНСОВОЕ И ТАМОЖЕННОЕ ПРАВО**

Xabibullayeva Dिल्фуза Kuanishbay qizi,
Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi
Milliy markazi mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0005-9024-7799
E-mail: xabibullayeva.dilfuza@mail.ru

DAVLAT XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA UNING HUQUQIY MAQOMI

For citation: Khabibullaeva Dिल्фуза Kuanishbay qizi. CONCEPT OF PUBLIC SERVICES AND ITS LEGAL STATUS. Journal of Law Research. 2025, 10 vol., issue 3, pp. 5-11

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15158563>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jismoniy va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan davlat faoliyatini huquqiy tartibga solish va tashkil etishning asosiy jihatlari qamrab olingan. Xususan, davlat xizmati – davlat organlarining fuqarolarga, yuridik shaxslarga va boshqa shaxslarga jamiyat hayotining turli sohalarida ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha ko'rsatiladigan faoliyati sifatida tahlil qilingan. Maqolada davlat xizmatlarining huquqiy maqomi, protsessual xususiyatlari, shuningdek, uni qabul qilishda fuqarolarning huquq va majburiyatlarini o'z ichiga olgan ma'muriy hujjatlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat xizmatining maqomi o'z navbatida uning turlari, sifatli va o'z vaqtida ko'rsatilishini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy kafolatlarni ham qamrab oladi. Shu bilan birga, maqolada davlat xizmatlari ko'rsatish sohasidagi huquqiy kafolatlarning ahamiyati, shuningdek, ushbu xizmatlarning jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o'rniga alohida to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: davlat xizmati, ma'muriy jarayon, ma'muriy-huquqiy faoliyat, kafolat, huquqiy maqom, qonuniylik.

Хабибуллаева Дилфуза Куанышбай кизи,
Самостоятельный соискатель Национального центра
Республики Узбекистан по правам человека
ORCID: 0009-0005-9024-7799
E-mail: xabibullayeva.dilfuza@mail.ru

ПОНЯТИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ УСЛУГИ И ЕЕ ПРАВОВОЙ СТАТУС

АННОТАЦИЯ

в статье рассматриваются основные аспекты правового регулирования и организации деятельности государства, направленной на удовлетворение потребностей физических и

юридических лиц. В частности, государственная услуга анализируется как деятельность государственных органов по обеспечению прав и интересов граждан, юридических лиц и иных лиц в различных сферах общественной жизни. Особое внимание в статье уделено правовому положению государственной услуги, ее правовой структуре, процессуальным особенностям, а также правам и обязанностям граждан при поступлении на нее. Статус государственной услуги включает также организационно-правовые гарантии, направленные на обеспечение ее доступности, качества и своевременности предоставления. В то же время в статье подчеркивается важность правового статуса и гарантий в сфере государственных услуг, а также роль этих услуг в социально-экономическом развитии общества.

Ключевые слова: государственная услуга, административный процесс, административно-правовая деятельность, гарантии, правовой статус, законность.

Khabibullaeva Dिल्фуза Кuanishbay qizi,
Independent researcher of the National Center of
the Republic of Uzbekistan for Human Rights
ORCID: 0009-0005-9024-7799
E-mail: xabibullayeva.dilfuza@mail.ru

CONCEPT OF PUBLIC SERVICES AND ITS LEGAL STATUS

ANNOTATION

The article examines the main aspects of legal regulation and organization of state activities aimed at meeting the needs of citizens and organizations. In particular, the public service is analyzed as the activity of state bodies to ensure the rights and interests of citizens, legal entities and other persons in various spheres of public life. The article pays special attention to the legal status of the public service, its legal structure, procedural features, as well as the rights and obligations of citizens upon admission to it. The status of the public service also includes organizational and legal guarantees aimed at ensuring its availability, quality and timeliness of provision. The public service is an integral part of the administrative process and serves as an important means of interaction between citizens and the state. At the same time, the article emphasizes the importance of the legal status and guarantees in the field of public services, as well as the role of these services in the socio-economic development of society.

Keywords: public service, administrative process, administrative and legal activity, guarantees, legal status, legality.

Bugungi rivojlangan jamiyatda inson huquqlari va erkinliklarining davlat tomonidan ta'minlanishida davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar hayotining ijtimoiy-huquqiy sohalari bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatining ahamiyati va samaradorligini davlat xizmatlarining ko'rsatilishi holati bilan o'lchash mumkin. Tabiiyki, davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasi bugungi kunda yangi bosqichga ko'tarilgan bir paytda uning inson huquqlariga ta'sirini baholash masalasining dolzarbliigi ortmoqda.

Bunda eng avvalo "davlat xizmatlari" tushunchasining ta'rifini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, bugungi kundagi ko'plab jamiyatlardagi ushbu tushuncha kengroq ma'noda fuqarolarga, tashkilotlarga yoki boshqa subyektlarga davlat vakolatlarini amalga oshirish hamda ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash doirasida ko'rsatiladigan xizmatlar tushuniladi. Xususan, davlat xizmatlari tushunchasining mazmun-mohiyati shundan iboratki, davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslar hayotining ijtimoiy-huquqiy sohalari bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyati hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda "davlat xizmatlari" tushunchasi davlat boshqaruvi, davlat sektori, shuningdek, turli iqtisodiy, ijtimoiy, ma'muriy va huquqiy nazariyalar doirasida o'rganilib kelinmoqda. Ushbu tushuncha davlat va mahalliy organlarning jamiyat va fuqarolarning hayotining turli sohalarida ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatini tavsiflash uchun ishlatiladi.

Bundan tashqari, ilmiy manbalarda “davlat xizmatlari” atamasini belgilashning asosiy yondashuvlari davlat boshqaruvi va davlat organlari, shuningdek fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning asosiy jihatlari aks ettiradi.

Shuningdek, D.T.Jovtunning fikricha, “xizmat” tushunchasi asta-sekin tabaqalanib bormoqda va u nafaqat fuqarolik-huquqiy ma’nodagi xizmatlarni, balki butun davlat va uning organlari, munitsipal va boshqa tuzilmalar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni ham qamrab oladi, shuningdek hozirgi kunda davlat nazariyasi, konstitutsiyaviy, ma’muriy va huquqning boshqa sohalariga oid ko‘plab asarlarda xizmatlar ko‘rsatish davlatning eng muhim vazifasi va uni konstitutsiyaviy tartibga solish vositasi sifatida haligacha alohida ko‘rsatilmagan [1].

Bundan tashqari, E.V.Talapina hamda Yu.A.Tixomirovlarning fikriga ko‘ra davlat xizmatlari nazariyasi hozirgi vaqtda chinakam rivojlangan nazariyadan ko‘ra ko‘proq konsepsiya bo‘lib ko‘rinadi.

Shu bilan birga, A.U.Kaliyevaning fikriga ko‘ra davlat xizmatlari tushunchasi fuqarolik-huquqiy tartibga solish doirasida aholiga ko‘rsatiladigan, lekin ommaviy xarakterdagi, jamoat ahamiyatiga ega bo‘lgan, ularning ko‘rsatilishi uchun davlat organi javobgar bo‘lgan xizmatlar hisoblanadi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15 sentyabrdagi 728-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to‘g‘risida”gi Nizomning 3-bandiga ko‘ra elektron davlat xizmati – axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda elektron shaklda ko‘rsatiladigan davlat xizmati deb belgidangan.

Davlat boshqaruvi kontekstida davlat xizmatlari tushunchasi. Davlat xizmatlari davlat boshqaruvining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi, chunki ular davlat funksiyalarini amalga oshirish va fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta’minlash bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur xizmatlar fuqarolar va davlat organlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning asosi bo‘lib, jamoat tartibi barqarorligini, huquq va adolatdan foydalanishni ta’minlaydi, shuningdek ijtimoiy tinchlik va iqtisodiy xavfsizlikni saqlashga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, davlat xizmatlarini davlat boshqaruvi tizimining tarkibiy qismi sifatida ko‘rish mumkin.

Eng avvalo davlat xizmatlari davlat boshqaruvi doirasida davlat xizmatlari davlat institutlarini qo‘llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi hamda qonun ustuvorligi faoliyatini ta’minlovchi asosiy funksiyalarni bajaradi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozim, davlat xizmatlari davlatning funksiyalari uning mohiyatini, ijtimoiy taraqqiyotning asosiy masalalarini hal etishda va birinchi navbatda, mamlakat aholisining rang-barang manfaatlarini qondirishda davlatning tutgan real rolini ifodalaydi [3].

Biroq, ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan qonunosti hujjatlariga nazar soladigan bo‘lsak, normativ-huquqiy hujjatlarning ba’zilar davlat funksiyalarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsa, boshqalari xizmatlarni ko‘rsatishga qaratilgan. Shu bois, ular o‘rtasida bir qator qarama-qarshiliklar yuzaga kelish holatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi [4].

Demak, ma’muriy hujjatlar ma’lum sohadagi davlat funksiyasining ta’minlanishi ustidan nazorat olib borishni davlat xizmatlarini ko‘rsatish yo‘li orqali amalga oshirishini hisobga oladigan bo‘lsak, davlat “funksiya”si tushunchasi umumiy ma’noni bersa, “xizmat” tushunchasi “maxsus” ma’noda qaralishi mumkin.

Shuningdek, mazkur tushunchalarning farqlarini o‘rganishda inson huquqlarining ahamiyatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu subyektlik faktor hisoblanadi. Subyekt, xizmatlar oluvchi, ularni qabul qilishda aniq, belgilangan va manfaatdor shaxs yoki manfaatdor shaxs nomidan ish yurituvchi shaxs hisoblanadi. Shunday qilib, davlat xizmatidan foydalanishda fuqaroning butun jamiyatni mavhumlash uchun emas, balki shaxsan o‘zi uchun foydali bo‘lgan imtiyozlar olishining imkoni mavjudligidir.

Natijada, davlat xizmatlarini ko‘rsatish nazorat, huquqni muhofaza qilish va boshqa funksiyalar bilan bir qatorda ijro etuvchi hokimiyat organlarining funksiyalaridan biri sifatida ma’muriy reglamentlarda belgilanganligini ko‘rishimiz mumkin.

Davlat xizmatlari ommaviy tovar sifatida. Shuni ta’kidlash joizki, “xizmat” tushunchasining o’zi qonunchilik uchun yangilik emas va fuqarolar va yuridik shaxslarning ehtiyojlarini qondira oladigan tayyor mehnat mahsuloti sifatida tushuniladi [5].

“Xizmat”, “tovar” va “foйда” kabi tushunchalarning umumiyliги va o’ziga xosliklari to’g’risida fikr yuritadigan bo’lsak, mazkur tushunchalarning barchasi inson ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan. Shunday bo’lsada, iqtisodiy nuqtai nazardan kelib chiqib qaraydigan bo’lsak, foйда bu muayyan ehtiyojlarni qondiradigan, qiymatga ega bo’lgan va ayirboshlash uchun mo’ljallangan tovar hisoblanadi. O’z navbatida, “xizmat” bu moddiy shaklning yo’qligi va mahsulotdan ishlab chiqarish vaqtida foydalanish jihatlari bilan ajralib turadigan tovardir [6].

Ijtimoiy jihatdan tahlil qiladigan bo’lsak, xizmatlarning muayyan turi bo’lmish, ijtimoiy xizmatlarga bozor tovari sifatida qarash konsepsiyasi, ba’zi siyosatchilar doiralarida muhokama qilingan bo’lsa-da, Yevropaning hech bir davlatida qabul qilinmagan [7].

Demak, davlat xizmatlarini tovar sifatida ko’rib chiqish ularning mohiyatini va ularni ta’minlashda davlat aralashuvi zarurligini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Ta’lim, sog’liqni saqlash va jamoat xavfsizligi kabi jamoat tovarlarini faqat bozor mexanizmlari orqali samarali ta’minlab bo’lmaydi, shu bois, davlat ularni ta’minlashda, barcha fuqarolar uchun qulaylik va tenglikni ta’minlashda asosiy rol o’ynaydi.

Davlat xizmatlari ma’muriy jarayonning bir qismi sifatida. Davlat xizmatlari nafaqat davlat organlari tomonidan ko’rsatiladigan xizmatlar majmui, balki davlat va fuqarolar yoki yuridik shaxslar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni tartibga soluvchi, tashkil etuvchi va nazorat qiluvchi kengroq “ma’muriy jarayonning” bir qismi sifatida qarashimiz mumkin.

Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va rivojlantirish mansabdor shaxslarni tasdiqlangan me’yorarga rioya qilmaganlik uchun javobgarlikka tortish va buning natijasida yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan yangi mexanizmlarni yaratishni nazarda tutadi.[8]

Shu bilan birga, O’zbekiston Respublikasining “Ma’muriy tartib-taomillar to’g’risida”gi Qonunining 2-moddasida ushbu Qonun ma’muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan ma’muriy-huquqiy faoliyatiga, shu jumladan litsenziya, ruxsat berish, ro’yxatdan o’tkazish tartib-taomillariga, davlat xizmatlarini ko’rsatish bilan bog’liq boshqa tartib-taomillarga, shuningdek qonunchilikka muvofiq boshqa ma’muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etiladi deb begilangan.

Shu bilan birga, mazkur Qonunning 4-moddasida ma’muriy-huquqiy faoliyat – ayrim jismoniy yoki yuridik shaxslarga yoxud muayyan xususiy belgilariga ko’ra ajratiladigan shaxslar guruhiga ta’sir ko’rsatuvchi boshqaruv faoliyati deb belgilangan.

Xususan, davlat xizmatlari ma’muriy jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi, chunki ma’muriy harakatlar va tartib-taomillarning butun majmuasini o’z ichiga oladi. Jumladan muayyan sohada ro’yxatga olish, litsenziyalash, sertifikatlash, tekshirish, monitoring, davlat xizmatlarning ko’rsatilishi va xavfsizligi ustidan nazorat ta’minlash shular jumlasidandir.

Raqamlashtirish masalalari bo’yicha zamonaviy ilmiy munozaralarda, ushbu muhokama qaysi huquqiy tizim va huquq sohasidan qat’i nazar, raqamli jamiyat sharoitida raqamli texnologiyalar ta’sirida an’anaviy huquqni o’zgartirish masalasi ko’tarilishi ta’biyiy.

Elektron shaklda davlat xizmatlarini ko’rsatishning ma’muriy tartibining quyidagi asosiy xususiyatlarini ajratib ko’rsatish mumkin:

- ariza beruvchining so’rov va boshqa hujjatlarni taqdim etishi, bunday so’rovlar va hujjatlarni davlat xizmati ko’rsatuvchi provayder, davlat xizmati ko’rsatishda ishtirok etuvchi tashkilot, axborot texnologiyalari va kommunikatsiya infratuzilmasidan, shu jumladan, birlashtirilgan xizmatlardan foydalangan holda qabul qilish imkoniyati;

- davlat va kommunal xizmatlar portali va/yoki davlat va kommunal xizmatlarning hududiy portallari;

- ariza beruvchi tomonidan davlat yoki kommunal xizmatlar ko’rsatish to’g’risidagi so’rovning ko’rib chiqilishi to’g’risida ma’lumot olish;

- xizmatlar ko’rsatuvchi provayderlar va xizmatlar ko’rsatishda ishtirok etuvchi tashkilotlarning tashkilot ichidagi elektron hamkorligi;

- ariza beruvchining davlat xizmati ko’rsatish natijasini elektron shaklda olishi;

– davlat xizmatiga ariza berish va davlat xizmatini ko‘rsatish elektron imzo bilan imzolangan elektron hujjatlardan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin [9].

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, davlat xizmatlarini ko‘rsatishning ma’muriy tartibini o‘zgartirish bir qator yangi huquqiy nizolarning kelib chiqishi uchun asos yaratadi.

Xususan, mazkur munosabatlarda subyektlari “virtual” ya’niy “raqamli shaxslar” sifatida, ular munosabatga kirishayotgan muhit esa “virtual makon” sifatida qaralishi [10] hamda ichki ma’muriy tartibni shaxssizlashtirish va xizmat ko‘rsatuvchi provayder bilan “jismoniy” aloqaning yo‘qligi shular jumlasidan [11].

Shunday ekan, davlat xizmatlari ma’muriy jarayon sifatida fuqarolar va yuridik shaxslarga zarur xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan kompleks harakatlar tizimidir. Bu jarayon bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi, ularning har biri tegishli norma va tamoyillar bilan tartibga solinadi. Davlat xizmatlarini samarali ko‘rsatish bevosita ma’muriy jarayonning to‘g‘ri tashkil etilishi, qonuniylik, ochiqlik va oshkoralik tamoyillariga rioya etilishiga, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va boshqaruv usullaridan foydalanishga bog‘liq.

Ta’kidlash joizki, bugungi global raqamlashish jarayonida jamiyatimizning ko‘plab sohalarida raqamlashish jarayonlari jadal sur‘atlar bilan amalga oshirilmoqda. Bu holat davlat idoralari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasiga ham o‘zining ta’mirini o‘tkazmay qolmadi. Xususan, davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida mamlakatimizda so‘nggi yillarda ko‘plab ijobiy ishlar amalga oshirildi hamda uni takomillashtirishga doir qator islohotlar olib borilmoqda. Bu esa o‘z navbatida, davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasida inson huquqlarining ta’minlash hamda uning ahamiyatini yuzaga keltirmoqda.

Eng avvalo shuni alohida ta’kidlash joizki, davlat xizmatlarini ko‘rsatish sohasini takomillashtirishda elektron hukumatning ahamiyati be‘qiyosdir. O‘zbekiston Respublikasining “Elektron hukumat to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra elektron hukumat — davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash yo‘li bilan davlat xizmatlari ko‘rsatishga doir faoliyatini, shuningdek idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta’minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar va texnik vositalar tizimi deb belgilangan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga davlat xizmatlari ko‘rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 12-dekabrda PF-5278-son Farmoni qabul qilindi [12].

Mazkur Farmonga muvofiq davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini tubdan isloh qilishning eng muhim yo‘nalishlari sifatida:

birinchidan, davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasida ularning sifati, tezkorligi, shaffofligi va foydalanish imkoniyatini tubdan oshirish orqali “Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” degan ulug‘vor g‘oyani so‘zsiz amalga oshirish;

ikkinchidan, tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatish yagona markazlarini ham yuridik, ham jismoniy shaxslarga “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha xizmatlarni taqdim qiluvchi Davlat xizmatlari markazlariga o‘zgartirish;

uchinchidan, davlat xizmatlarining har bir turi bo‘yicha “Fuqarolar emas, hujjatlar harakatlanadi” tamoyiliga ko‘ra davlat xizmatlari ko‘rsatish mexanizmini, eng avvalo, ortiqcha tartib-taomillarni bartaraf etish, vakolatli davlat organlari va boshqa tashkilotlar zarur hujjatlar va axborotlarni boshqa tuzilmalardan mustaqil ravishda olishi hisobiga soddalashtirishni nazarda tutuvchi ma’muriy reglamentlarni tasdiqlash;

to‘rtinchidan, davlat xizmatlari ko‘rsatish sohasiga innovatsion yechimlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning ma’lumotlar bazalarini idoralararo elektron hamkorlik yagona tizimiga integratsiya qilish, O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlari ko‘rsatish amaliyotini kengaytirish;

beshinchidan, davlat xizmatlarini, shu jumladan olis joylarga chiqish orqali (“mobil davlat xizmatlari”) ko‘rsatishning maqbul, qulay va shaffof uslublaridan, mazkur sohada byurokratiya va korrupsiya yuzaga kelishini bartaraf etishga qaratilgan navbatni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi va ishlarning uzaytirilgan grafigidan foydalanish;

oltinchidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sifati va tezkorligini monitoring qilish va baholashning ilg'or mexanizmlarini joriy etish, aholi bilan qayta aloqaning samarali tizimini, shu jumladan tezkor aloqalarni, rasmiy saytlar, ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalarda on-layn so'rovlarni tashkil qilish;

yettinchidan, davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida malakali kadrlarni tizimli tayyorlash va qayta tayyorlashni, ularning malakasini, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning yetakchi ixtisoslashgan muassasalarida stajirovka o'tash orqali tizimli ravishda oshirishni tashkil etish deb belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat xizmatlari ko'rsatishni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoni qabul qilingan. Mazkur Farmon bilan "Davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishning 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Milliy strategiyasi" tasdiqlandi [13]. Ushbu Strategiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida:

davlat xizmatlarini ko'rsatishni tartibga soluvchi huquqiy asoslarni takomillashtirish va ma'muriy tartib-taomillarning samaradorligini oshirish;

sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, davlat xizmatlarini ko'rsatishda idoralararo elektron hamkorlikni kengaytirish va mavjud ma'lumotlar bazasini raqamlashtirish, konfidensial axborotlarning xavfsizligini ta'minlash;

davlat xizmatlarining yangi turlari va shakllarini joriy qilish, xizmatlardan foydalanish qulayligini oshirish va ko'rsatilayotgan xizmatlarni ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilish;

davlat xizmatlarini ko'rsatishda vakolatli idoralarning mas'uliyatini yanada oshirish, aholiga o'z vaqtida xizmatlar ko'rsatilishini ta'minlashning ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish hamda xodimlarni ijtimoiy himoya qilish;

xalqaro reytinglarda O'zbekiston o'rnini yaxshilash va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish belgilangan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son Qaroriga muvofiq vazirlikning asosiy vazifalardan biri sifatida jismoniy va yuridik shaxslarga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish belgilangan [14].

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining ma'muriy organlarning manfaatdor shaxslarga nisbatan ma'muriy-huquqiy faoliyatiga, shu jumladan litsenziya, ruxsat berish, ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillariga, davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq boshqa tartib-taomillarga, shuningdek qonunchilikka muvofiq boshqa ma'muriy-huquqiy faoliyatga nisbatan tatbiq etiladi deb belgilangan.

Shu bilan birga, ushbu Qonunga muvofiq ma'muriy tartib-taomillarning asosiy prinsiplari sifatida qonuniylik, mutanosiblik, ishonchlilik, tinglanish imkoniyatining mavjudligi, ma'muriy tartib-taomillarning ochiqligi, shaffofligi va tushunarligi, manfaatdor shaxslar huquqlarining ustunligi, byurokratik rasmiyatchilikka yo'l qo'yilmasligi, mazmunan qamrab olish, ma'muriy ish yuritishning «bir darcha» orqali amalga oshirilishi, teng huquqlilik, ishonchning himoya qilinishi, ma'muriy ixtiyoriylikning (diskretion vakolatning) qonuniyligi, tekshirish belgilangan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, "davlat xizmatlari" tushunchasi nisbatan yangi bo'lib, aniq belgilangan ta'rifga ega emas. Bugungi kunda ko'plab jamiyatlarda davlat xizmatlarini ko'rsatishni takomillashtirish jarayonlari ketmoqda va bu davlat funksiyasini samarali ta'minlash uchun xizmatlarning sifati hamda samaradorligini oshirish, ulardan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash choralari ko'rishni talab etmoqda.

Shu bilan bir qatorda, davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar elektron hukumatni takomillashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirilayotganligini hisobga olgan holda davlat xizmatlaridan foydalanishda inson huquqlarining

ta'minlanishi va yuzaga kelayotgan to'siqlarni muntazam tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish choralarini ko'rish maqsadga muvofiq.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Jovtun D. T., Kulik M. S. Gosudarstvennie usluzhi naseleniyu Rossii: ponyatiye i vidi // Sotsiologiya vlasti. 2006. №2. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/gosudarstvennye-uslugi-naseleniyu-rossii-ponyatie-i-vidy>. (accessed 26.01.2025)
2. Kaliyeva A. U. Ponyatiye i pravovaya priroda gosudarstvennix uslug // Vestnik Instituta zakonodatelstva i pravovoy informatsii Respubliki Kazaxstan. 2010. №3 (19). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-pravovaya-priroda-gosudarstvennyh-uslug>. (accessed: 26.01.2025)
3. Xropanyuk V.N. Teoriya gosudarstva i prava. M., 2008. 384 s.
4. Shulakova Anastasiya Aleksandrovna Problemnii aspekti razgranicheniya gosudarstvennix uslug s gosudarstvennimi funktsiyami // Izvestiya OGAU. 2015. №1 (51). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/problemnye-aspekty-razgranicheniya-gosudarstvennyh-uslug-s-gosudarstvennymi-funktsiyami>. (accessed 08.01.2025)
5. Rudenko Ilya Alekseyevich Ponyatiye i sushnost gosudarstvennoy uslugi // Promishlennost: ekonomika, upravleniye, texnologii. 2014. №3 (52). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-suschnost-gosudarstvennoy-uslugi>. (accessed 08.01.2025)
6. Kozelskiy V. N. Issledovaniye sushnosti gosudarstvennix uslug v sovremennoy Rossii // Promishlennost: ekonomika, upravleniye, texnologii. 2011. №2. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-suschnosti-gosudarstvennyh-uslug-v-sovremennoy-rossii>. (accessed: 11.01.2025)
7. Vojova A. S. Modeli sotsialnoy politiki v zarubezhnykh stranax // Teoriya i praktika sovremennoy nauki. 2017. №3 (21). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/modeli-sotsialnoy-politiki-v-zarubezhnyh-stranah>. (accessed: 11.01.2025)
8. Rudenko Ilya Alekseyevich Ponyatiye i sushnost gosudarstvennoy uslugi // Promishlennost: ekonomika, upravleniye, texnologii. 2014. №3 (52). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/ponyatie-i-suschnost-gosudarstvennoy-uslugi>. (accessed 08.01.2025)
9. Kramer Urs, Mitskevich Lyudmila Abramovna, Vasileva Anna Fedotovna Elektronnie formi v administrativnom protsesse Rossii i Germanii // Vestnik SPbGU. Seriya 14. Pravo. 2019. №4. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/elektronnye-formy-v-administrativnom-protsesse-rossii-i-germanii>. (accessed 12.01.2025)
10. Xabriyeva Taliya Yarullova, Chernogor Nikolay Nikolayevich Pravo v usloviyax sifrovoy realnosti // Jurnal rossiyskogo prava. 2018. №1 (253). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravo-v-usloviyah-tsifrovoy-realnosti>. (accessed: 12.01.2025)
11. E. V. Talapina «Gosudarstvennoye upravleniye v informatsionnom obshestve. Pravovoy aspekt». RAN, Institut gosudarstva i prava. M.: Yurisprudensiya. 2015, – 192 s. Available at: http://www.consultant.ru/cons/cgi/online.cgi?req=doc;base=CMB;n=17933_07480668098306734. (accessed 25.12.2024)
12. <https://lex.uz/docs/3454462>
13. <https://lex.uz/docs/5971599>
14. <https://lex.uz/docs/3681790>

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

10 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 10, НОМЕР 3

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 10, ISSUE 3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000